Registered in Germany Europa Revue Journal
ISSN: 1862-6564 Vol. 6 No. 7 (2026) Published July 29, 2026

THE CONCEPT OF MINOR SYNTAX AND ITS PLACE IN THE SYSTEM OF SYNTACTIC UNITS

Karimova Nigina Sunatillo qizi

Samarkand State Institute of Foreign Languages (SamSIFL)

Abstract

This article examines the theoretical foundations of the concept of minor syntax, its historical development, and its place within the system of syntactic units. It analyzes the relationship between internal syntax and phrase syntax, the syntactic relations between head and dependent components, as well as issues of valency, structural models, and the typological characteristics of internal syntactic relations. The study also provides a comparative analysis of internal syntactic models in English and Uzbek, highlighting the distinctive features of analytical and agglutinative language structures.

Keywords

minor syntax, internal syntax, dependent component, phrase structure, syntactic model, valency, head component, syntactic relation, English language, Uzbek language.

KICHIK SINTAKSIS KONSEPTI VA UNING SINTAKTIK BIRLIKLAR TIZIMIDAGI O‘RNI

Karimova Nigina Sunatillo qizi (SamDCHTI)

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik sintaksis konseptining nazariy asoslari, uning shakllanish tarixi hamda sintaktik birliklar tizimidagi o‘rni tahlil qilinadi. Ichki sintaksisning so‘z birikmasi sintaksisi bilan uzviy bog‘liqligi, markaz va tobe komponentlar o‘rtasidagi sintaktik munosabatlar, valentlik, struktur modellar hamda ichki sintaktik aloqalarning tipologik xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, ingliz va o‘zbek tillaridagi ichki sintaktik modellar qiyosiy jihatdan tavsiflanib, analitik va agglutinativ tillarga xos sintaktik qurilishlarning o‘ziga xos tomonlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: kichik sintaksis, ichki sintaksis, so‘z birikmasi, sintaktik model, valentlik, markaziy komponent, tobe komponent, sintaktik aloqa, ingliz tili, o‘zbek tili.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические основы концепции малого синтаксиса, история её становления и место в системе синтаксических единиц. Анализируются взаимосвязь внутреннего синтаксиса с синтаксисом

словосочетания, отношения между главным и зависимым компонентами, вопросы валентности, структурных моделей и типологических особенностей внутренних синтаксических связей. Особое внимание уделяется сопоставительному анализу внутренних синтаксических моделей английского и узбекского языков, а также выявлению особенностей аналитического и агглютинативного типов языкового строя.

Ключевые слова: малый синтаксис, внутренний синтаксис, словосочетание, синтаксическая модель, валентность, главный компонент, зависимый компонент, синтаксическая связь, английский язык, узбекский язык.

Zamonaviy tilshunoslikda sintaksis bir jinsli, yaxlit soha emas, balki ichki tabaqalanishga ega bo‘lgan ko‘p sathli tizim sifatida talqin qilinadi. An’anaviy ravishda sintaksis ikki asosiy sathga ajratiladi: so‘z birikmasi sintaksisi va gap sintaksisi. Birinchisi tilshunoslik adabiyotida ichki (kichik) sintaksis, mikrosintaksis yoki so‘z birikmasi sintaksisi nomlari bilan, ikkinchisi esa tashqi (katta) sintaksis, makrosintaksis yoxud gap sintaksisi atamalari bilan yuritiladi. Ichki sintaksis so‘z birikmasi doirasidagi munosabatlarni, uning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi tobelik aloqasini, bog‘lanish mexanizmini, markaz va tobe komponentlarning o‘zaro joylashuvini hamda chiziqli tartibini o‘rganadi. Demak, ichki sintaksis konsepti so‘z birikmasini muayyan ichki tuzilishga ega bo‘lgan tashkil etilgan butunlik sifatida tahlil qilishni nazarda tutadi va shu jihati bilan u so‘z birikmasi nazariyasining o‘zagini tashkil etadi.

Ichki sintaksis tushunchasining shakllanish tarixi so‘z birikmasining mustaqil sintaktik birlik sifatida e’tirof etilishi bilan uzviy bog‘liqdir. So‘z birikmasi so‘z bilan gap orasidagi oraliq birlik sifatida ajratilgach, uning ham o‘ziga xos ichki sintaktik tashkillanishga egaligi masalasi tabiiy ravishda kun tartibiga chiqdi. F.F. Fortunatov va uning izdoshlari sintaksisni, avvalo, so‘z birikmasi haqidagi ta’limot sifatida talqin qilib [F.F. Fortunatov, 1956: 450], aslida ichki sintaksis sathini sintaksisning markaziga qo‘ydilar. V.V. Vinogradov esa so‘z birikmasi sintaksisini gap sintaksisidan aniq farqlab [V.V. Vinogradov, 1972: 614], birinchisini birliklarning nominativ vazifa doirasidagi ichki bog‘lanishini, ikkinchisini esa predikativ munosabatlar sohasini o‘rganadigan sath

sifatida belgiladi. Aynan shu farqlash keyinchalik mikrosintaksis va makrosintaksis tushunchalarining nazariy asosini tashkil etdi.

Ichki va tashqi sintaksis o‘rtasidagi farqlash so‘z birikmasi sintaksisining mustaqil tadqiqot sohasiga aylanishiga turtki bo‘ldi. A.M. Peshkovskiy so‘zlar orasidagi bog‘lanish vositalarini batafsil tahlil qilib [A.M. Peshkovskiy, 2001: 544], ichki sintaktik aloqaning grammatik mexanizmlarini ochib berdi va so‘z birikmasi ichidagi munosabatlarni gap ichidagi munosabatlardan ajratib ko‘rsatdi. XX asrning ikkinchi yarmida ichki sintaksisni o‘rganish tavsifiy bosqichdan modellashtiruvchi bosqichga o‘tdi: tadqiqotchilar endi har bir birikma turining ichki sxemasini, ya’ni uning struktur qolipini aniqlashga harakat qildilar. Shu tariqa ichki sintaksis nafaqat alohida hodisalarni tasvirlovchi, balki so‘z birikmasi hosil bo‘lishining umumiy qonuniyatlarini umumlashtiruvchi nazariy soha sifatida shakllandi.

So‘z birikmasi haqidagi dastlabki qarashlarning ildizlari nafaqat Yevropa, balki Sharq grammatik an’anasiga ham borib taqaladi. Hind tilshunosligida Panini sanskrit grammatikasida so‘zlarning birikuv qoidalarini izchil tavsiflagan. Arab tilshunosligida esa so‘z birikuvi (al-idofa) maxsus o‘rganilgan va bu an’ana turkiy tilshunoslikka ham ta’sir ko‘rsatgan. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida [Mahmud Koshg‘ariy, 1960], turkiy so‘zlarning birikuv xususiyatlari, Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimat al-adab” asarida [Mahmud Zamaxshariy, 1993] esa so‘z birikuvining grammatik qonuniyatlari muayyan darajada yoritilgan. Bu manbalar turkiy, jumladan, o‘zbek tilida so‘z birikmasi haqidagi tasavvurlarning tarixiy ildizlarini ko‘rsatadi va ichki sintaksis konseptining milliy zamini mavjudligidan dalolat beradi.

Ichki sintaksisning predmetini aniqroq tasavvur qilish uchun uni tashqi sintaksisdan farqlash zarur. Tashqi sintaksis so‘z birikmasi yoki uning komponentlari gap tarkibida qanday vazifa bajarishini, ya’ni birikmaning gap a’zosi sifatidagi xulq-atvorini o‘rganadi. Ichki sintaksis esa birikmaning o‘z chegarasi doirasidagi munosabatlarga, komponentlarning qaysi biri markaz (bosh so‘z), qaysi biri tobe (ergash so‘z) ekanligiga, ular o‘rtasidagi sintaktik aloqa turiga va ularning pozitsion tartibiga e’tibor qaratadi. Masalan, *the tall boy* (o‘zb. *baland bo‘yli bola*) birikmasida *boy / bola* markaz, *tall / baland bo‘yli* esa tobe komponent bo‘lib, ular o‘rtasidagi atributiv (aniqlovchili)

munosabat — bu birikmaning ichki sintaktik mazmunidir. Mazkur birikmaning gapda ega yoki to‘ldiruvchi vazifasini bajarishi esa allaqachon tashqi sintaksis doirasiga kiradi.

Ichki sintaksisning sintaktik tizimdagi markaziy o‘rni uning bajaradigan vazifalari bilan ham izohlanadi. Avvalo, ichki sintaksis so‘z birikmasining hosil bo‘lish qonuniyatlarini belgilab, tilning nominativ imkoniyatlarini kengaytiradi: yangi tushunchalar aksariyat hollarda yangi so‘zlar yaratish orqali emas, balki mavjud so‘zlarni ichki sintaktik model asosida birikitirish orqali ifodalanadi. Ikkinchidan, ichki sintaktik modellar gap qurilishi uchun tayyor bloklar vazifasini o‘taydi: gap a’zolari ko‘pincha alohida so‘zlar emas, balki so‘z birikmalari shaklida voqelanadi. Uchinchidan, ichki sintaksis tilning produktivligini ta’minlaydi, zero cheklangan sondagi ichki modellar asosida cheksiz miqdordagi konkret birikmalar hosil qilinishi mumkin. Aynan shu jihatlar ichki sintaksisni so‘z va gap sathlarini bog‘lovchi markaziy bo‘g‘in sifatida e’tirof etishga asos bo‘ladi.

Ichki sintaktik modelni tushunish uchun so‘z birikmasi komponentlarining tabiatini aniqlash zarur. Har bir tobe so‘z birikmasi kamida ikki komponentdan, markaziy (bosh) komponent va tobe (ergash) komponentdan tashkil topadi. Markaziy komponent birikmaning grammatik o‘zagini tashkil etadi, uning turkumi butun birikmaning sintaktik tabiatini belgilaydi va birikma gapda aynan shu komponent vazifasini bajaradi. Tobe komponent esa markaziy komponentni aniqlaydi, to‘ldiradi yoki cheklaydi. Masalan, *an interesting story / qiziqarli hikoya* birikmasida *story / hikoya* markaziy komponent (ot) bo‘lib, birikma ot birikmasi sanaladi, *interesting / qiziqarli* esa tobe komponentdir. Markaziy komponentning turkumiga ko‘ra so‘z birikmalari ot markazli, fe’l markazli, sifat markazli va ravish markazli turlarga ajratiladi; bu esa ichki sintaktik modellarni tasniflashning asosiy mezoni hisoblanadi.

So‘z birikmasini boshqa til birliklaridan farqlash ichki sintaksisning muhim metodologik masalasidir. So‘z birikmasi so‘zdan tarkibiy murakkabligi bilan, u kamida ikki mustaqil so‘zdan iborat bo‘lishi bilan farqlanadi. Qo‘shma so‘zdan esa u komponentlarining nisbiy mustaqilligi va ajralib qo‘llanish imkoniyati bilan ajraladi: ingliz tilidagi *blackboard* qo‘shma so‘z, *black board* esa so‘z birikmasidir; o‘zbek tilida *oshxona* qo‘shma so‘z, *issiq osh* esa so‘z birikmasidir. Gapdan so‘z birikmasi

predikativlik va modallik xususiyatlarining yo‘qligi bilan farqlanadi: so‘z birikmasi voqelikka munosabat bildirmaydi, balki faqat tushunchani atash vazifasini bajaradi. Frazeologik birlikdan esa erkin so‘z birikmasi komponentlari ma’nosining yaxlitligi va nutqda yangidan hosil bo‘lishi bilan ajraladi. Mazkur mezonlar so‘z birikmasini sintaktik birliklar tizimida aniq joylashtirish imkonini beradi.

G‘arb tilshunosligida ichki sintaksis konsepti, asosan, frazaviy struktura va konstituent tahlil doirasida rivojlandi. L. Blumfild endotsentrik va ekzotsentrik konstruksiyalarni farqlab [L. Blumfild, 1933: 564], birikmaning ichki markazi mavjud yoki mavjud emasligiga ko‘ra uning ichki tuzilishini tavsifladi: endotsentrik birikmada (masalan, *poor John*) markaz aniq ajraladi, ekzotsentrik birikmada esa bunday markaz bo‘lmaydi. Generativ grammatikada bu g‘oya X-bar nazariyasi orqali yanada rivojlantirildi: N. Xomskiy [N. Xomskiy, 1957: 117] va R. Jakendoff [R. Jakendoff, 1977: 249] har bir frazaviy birlikning ichki tuzilishini markaz (head), to‘ldiruvchi (complement) va aniqlovchi (specifier) pog‘onalaridan iborat ierarxik model sifatida taqdim etdi. A. Karni ushbu modelni umumlashtirib, [A. Karni, 2013: 540]. frazalarning ichki sintaktik qurilishi tillararo universal qonuniyatlarga bo‘ysunishini ko‘rsatdi.

X-bar nazariyasi ichki sintaksisni modellashtirishda alohida ahamiyatga ega. Bu nazariyaga ko‘ra, har qanday frazaviy birlik bir xil umumiy ichki sxemaga bo‘ysunadi: markaz (X) o‘zining to‘ldiruvchisi bilan birikib oraliq pog‘ona (X′)ni, oraliq pog‘ona esa aniqlovchi bilan birikib to‘liq frazani (XP)ni hosil qiladi. Masalan, *the student of physics* birikmasida *student* markaz (N), *of physics* to‘ldiruvchi, *the* esa aniqlovchi (determinator) bo‘lib, ular ketma-ket pog‘onali tarzda birikadi. Mazkur model birikmaning ichki ierarxiyasini aniq ko‘rsatishi bilan qimmatli, biroq u, asosan, pozitsion vositalar ustun bo‘lgan analitik tillarga moslashgan. Agglutinativ tillarda esa bu ierarxiya ko‘proq morfologik ko‘rsatkichlar orqali ifodalanadi, bu esa X-bar modelini bunday tillarga to‘g‘ridan to‘g‘ri tatbiq etishni cheklaydi.

Ichki sintaktik munosabatlarni markaz va tobe so‘z orasidagi yo‘naltirilgan bog‘lanishlar tizimi sifatida formallashtirdi. Bu yondashuvlar so‘z birikmasining ichki modeli faqat tarkibiy qismlar yig‘indisi emas, balki markaz so‘zning valentlik imkoniyatlari asosida shakllanadigan tartibli tuzilma ekanligini tasdiqlaydi. Masalan,

ingliz tilidagi *to give* fe'li uch valentli bo'lib (*give somebody something*), ichki sintaktik modelida ikki tobe a'zoni talab qiladi; o'zbek tilidagi *bermoq* fe'li ham shunga o'xshash valentlikka ega (*kimgadir nimanidir bermoq*), biroq tobe a'zolar kelishik qo'shimchalari orqali markazga bog'lanadi.

So'nggi yillarda ichki sintaksisni o'rganishda korpus-lingvistik yondashuv keng qo'llanilmoqda. Yirik til korpuslari so'z birikmalarining real qo'llanish chastotasini, komponentlarning o'zaro bog'lanish kuchini va ichki modellarning produktivlik darajasini empirik tarzda aniqlash imkonini beradi. Bunday yondashuv ichki sintaktik tahlilni nazariy taxminlardan haqiqiy til materiali asosidagi statistik dalillarga o'tkazadi. Ingliz tili uchun yirik milliy korpuslar, o'zbek tili uchun esa shakllanib borayotgan korpus resurslari ichki sintaktik modellarni qiyosiy o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Korpus ma'lumotlari, ayniqsa, qaysi ichki modellar yuqori chastotali va produktiv ekanligini belgilashda qimmatlidir.

Ichki sintaksis konsepti eng izchil va tizimli tarzda rus tilshunosligida ishlab chiqildi, zero so'z birikmasi sintaksisi bu an'anada alohida nazariy sath sifatida mustahkam o'rin egalladi. V.V. Vinogradov so'z birikmasi ichidagi munosabatlarni mazmuniy jihatdan atributiv (aniqlovchili), obyektiv (to'ldiruvchili) va relyativ-obstoyatelьniy (holli) turlarga ajratdi [V.V. Vinogradov, 1972: 614].

O'zbek tilshunosligida ichki sintaksisga sistem-struktur va formal-funksional yondashuvlar alohida o'rin tutadi. N. Mahmudov va A. Nurmonov so'z birikmasini til va nutq dixotomiyasi asosida talqin qilib [N. Mahmudov, A. Nurmonov, 1995: 232], uning ichki tuzilishini lisoniy sathdagi mavhum model va nutqiy sathdagi konkret voqelanish sifatida farqladilar. A. Nurmonov o'zining keyingi tadqiqotlarida [A. Нурмонов, 2012: 384] sintaktik birliklarning ichki mazmuniy tashkillanishiga e'tibor qaratdi. R. Sayfullayeva formal-funksional sintaksis konsepsiyasi doirasida [R.Sayfullayeva, 2009: 416] so'z birikmasining ichki tuzilishini struktur sxemalar — qoliplar tizimi sifatida modellashtirish g'oyasini ilgari surdi; bu yondashuvda har bir so'z birikmasi muayyan ichki sintaktik qolipning nutqiy voqelanishi sifatida qaraladi. A. Abduazizov esa sintaktik sathning umumiy nazariy masalalarini yoritib [A.

Abduazizov, 2010: 224] ichki sintaksisning til tizimidagi o‘rnini belgilashga hissa qo‘shdi.

Agglutinativ tillar uchun ichki sintaksisning o‘ziga xos jihati uning morfologiya bilan chambarchas bog‘liqligidir. O‘zbek tilida so‘z birikmasi komponentlari o‘rtasidagi ichki sintaktik munosabat ko‘p hollarda mustaqil yordamchi so‘zlar emas, balki affikslar orqali ifodalanadi. Masalan, *kitobning muqovasi* birikmasida qaratqich kelishigi (-ning) va egalik (-i) qo‘shimchalari ichki sintaktik bog‘lanishning grammatik ko‘rsatkichi vazifasini bajaradi. Ingliz tilida esa shu munosabat *the cover of the book* tarzida, ya’ni of predlogi va so‘z tartibi orqali analitik usulda ifodalanadi. Bu farq ichki sintaksis va morfologiya o‘rtasidagi chegara masalasini agglutinativ tillar uchun ayniqsa murakkablashtiradi: bir qarashda morfologik hodisa bo‘lib ko‘rinadigan affiksal ko‘rsatkich, aslida, ichki sintaktik munosabatni voqelantiruvchi vosita sanaladi. Shu bois o‘zbek tilida ichki sintaksisni o‘rganishda morfologik va sintaktik sathlarni uzviy birlikda ko‘rib chiqish zarurati tug‘iladi.

Ichki sintaktik munosabatlarning ifodalanish usuli tipologik nuqtai nazardan ikki tilda tubdan farqlanadi. Analitik qurilishli ingliz tilida ichki munosabatlar, asosan, ikki vosita, so‘z tartibi va yordamchi so‘zlar (predloglar) orqali ifodalanadi. Masalan, egalik munosabati of predlogi yoki ’s ko‘rsatkichi bilan (*the roof of the house, John’s book*), obyekt munosabati esa fe’ldan keyingi pozitsiya bilan (*write a letter*) beriladi. Agglutinativ qurilishli o‘zbek tilida esa bu munosabatlar, asosan, affikslar zimmasida bo‘ladi: egalik qaratqich va egalik qo‘shimchalari bilan (*uyning tomi*), obyekt esa tushum kelishigi qo‘shimchasi bilan (*xat yozmoq*) ifodalanadi. Bu farq shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilida ichki sintaktik model ko‘proq pozitsion-sintaktik, o‘zbek tilida esa morfologik-sintaktik xarakterga ega. Aynan shu tipologik xususiyat ikki tildagi ichki sintaktik modellarni qiyoslashning eng muhim jihatlaridan birini tashkil etadi va dissertatsiyaning markaziy muammosini belgilaydi.

Ichki sintaktik model nafaqat shakliy, balki mazmuniy jihatga ham ega. Bir xil ichki struktura turli semantik munosabatlarni ifodalashi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi N+N modeli (*stone wall, history teacher, morning coffee*) bir vaqtning o‘zida material, mavzu va vaqt munosabatlarini anglatadi; o‘zbek tilida ham qaratqichli birikma (*oltin uzuk,*

tarix o‘qituvchisi) shunga o‘xshash ko‘p mazmunlilikka ega. Bu holat ichki sintaktik modelning struktur qolip sifatida bir necha semantik variantni qamrab olishini ko‘rsatadi. Demak, ichki sintaksisni to‘liq tavsiflash uchun uning struktur tomonini semantik tomon bilan birgalikda o‘rganish lozim, zero ayni bir qolip har xil ma’noviy munosabatlarni voqelantirishi mumkin.

Maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi ichki sintaktik modellar qiyosiy tahlil qilinib, analitik va agglutinativ tillarga xos sintaktik qurilishlarning umumiy hamda farqli jihatlari yoritildi. Tadqiqot natijalari ichki sintaksisni struktur, semantik va funksional jihatdan kompleks o‘rganish sintaktik nazariyani yanada boyitishini, qiyosiy tilshunoslik, tipologik tadqiqotlar hamda zamonaviy korpus lingvistikasi uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishini ko‘rsatadi. Mazkur xulosalar kichik sintaksisning mustaqil tadqiqot obyekti sifatidagi nazariy maqomini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Фортунатов Ф.Ф. Избранные труды. Т.I. – Москва: Учпедгиз, 1956. – 450 с.
2. Виноградов В.В. Русский язык (Грамматическое учение о слове). – Москва: Высшая школа, 1972. – 614 с.
3. Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. – Москва: Языки славянской культуры, 2001. – 544 с.
4. Кошғарий М. Девону луғотит турк. 3 жилдлик. – Тошкент: Фан, 1960 – 1963.
5. Замахшарий М. Муқаддимат ал-адаб. – Тошкент: Фан, 1993.
6. Bloomfield L. Language. – New York: Henry Holt, 1933. – 564 p.
7. Chomsky N. Syntactic Structures. – The Hague: Mouton, 1957. – 117 p.
8. Jackendoff R. X-bar Syntax: A Study of Phrase Structure. – Cambridge, MA: MIT Press, 1977. – 249 p.
9. Carnie A. Syntax: A Generative Introduction. – Oxford: Blackwell, 2013. – 540 p.

10. Allerton D.J. Valency and the English Verb. – London: Academic Press, 1982. – 213 p.

11. Mel’čuk I. Dependency Syntax: Theory and Practice. – Albany: SUNY Press, 1988. – 428 p.

12. Виноградов В.В. Русский язык (Грамматическое учение о слове). – Москва: Высшая школа, 1972. – 614 с.

13. Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987. – 256 б.

14. Абдураҳмонов Ғ. Ўзбек тили грамматикаси. Синтаксис. – Тошкент: Фан, 1996. – 232 б.

15. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 232 б.

16. Нурмонов А. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – 384 б.

17. Сайфуллаева Р. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан, 2009. – 416 б.

18. Абдуазизов А. Тилшунослик назарияси. – Тошкент: 2010. – 224 б.